

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Tarix va arxeologiya fanlari” yo‘nalishi		
№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	O‘zbekiston SSR da siyosiy qatag‘on qurbonlari (oz sonli millatlar va xorijliklar) elektron ensiklopediyasini yaratish 	Tadqiqotning shakli: Amaliy. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - ilgari ilmiy tadqiqotlarga kiritilmagan O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizligi arxivi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti adminstratsiyasi arxivi, O‘zbekiston Milliy arxivlari va viloyat, tuman, shahar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy davlat arxivi hamda chet ellardagi tegishli arxivlarida saqlanayotgan hujjatlar tadqiq etiladi; - O‘zbekiston SSR va Qoraqalpog‘iston ASSRda amalga oshirilgan qatag‘on siyosati natijasida qurbon bo‘lgan oz sonli millat vakillari va xorijliklar o‘rganilib, ularning hayoti va faoliyatiga oid ma’lumotlar jamlanadi, birlamchi manbalarning nusxalari olinib, hujjatlar ombori shakllantiriladi; - Respublika va xorij arxiv, kutubxona va muzeylaridan jamlangan ma’lumotlar asosida “katta qirg‘in” siyosatida qurbon bo‘lgan oz sonli millat vakillari va xorijliklarning elektron ro‘yxati tuziladi, ushbu elektron ro‘yxat hamda ular haqidagi ma’lumotlar muzey-xotira.uz saytiga, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va viloyatlardagi qatag‘on qurbonlari muzeyi hududiy bo‘linmalarining infokioskiga joylashtiriladi; - izlanishlar natijasida to‘plangan materiallar ilmiy tahlil qilinib, ular asosida siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan oz sonli millat vakillarining ro‘yxati shakllantiriladi. Shuningdek, har bir qatag‘on qurbonining hayoti va qatag‘on qilinishi haqida batafsil ma’lumot beradigan “O‘zbekiston SSRda 1937 – 1938 yillardagi qatag‘on (oz sonli millatlar va xorijliklar)” nomli ensiklopediya nashrga tayyorlanadi; - 1937 – 1938 yillar etnik qatag‘onlarni yo‘q qilishga qaratilgan buyruq, memorandum va direktivalar asosida hududlarda amalga oshirilgan keng ko‘lamli etnik tozalash operatsiyalari qurbonlarining hayoti, faoliyati va qismatiga bag‘ishlangan “O‘zbekiston SSRda siyosiy qatag‘on: oz sonli millatlar va xorijliklar” nomli ilmiy-izohli arxiv hujjatlari to‘plami nashrga tayyorlanadi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyida sinovdan o‘tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Fanlar akademiyasi yoki Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.